ESKI O‘ZBEK TILIDA “DARVESHLAR AHLI RISOLASI” ASARINING KODIKOLOGIK VA GRAMMATIK, LEKSIK – SEMANTIK TAHLILI

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Markaziy Osiyo xalqlari tili va madaniyati instituti talabasi
Usmonova Farangiz Vaxobjon qizi
Farangizusmonova69@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqola eski o‘zbek tilida yaratilgan asarlardan biri “Darveshlar ahli risolasi” ning qisqa kodikologik xususiyatlari va grammatik leksik-semantik tahliliga bag‘ishlanadi. Maqolada qo‘lyozmaning yozuv uslubi, sahifa tuzilishi va hattotlik xususiyatlari aniqlanadi. Risolada qo‘llanilgan morfologik shakllar, sintaktik qurilmalar va yana arab- fors leksik qatlamlariniga ham to‘xtalinadi. Semantik tahlil orqali asarda ifodalangan tasavvufiy qarashlar mohiyati ochib beriladi. Tadqiqot natijasida asarning nafaqat lingvistik, balki falsafiy-axloqiy qiymati ham yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *eski yozuv, tasavvuf, so‘fiylik, qadimgi turkey til, qo‘lyozma, til tarixi, nastalliq,xronologik belgilash, murid, leksik qatlam, donetikasi, singarmaniz, lab uyg‘unligi, tovush uyg‘unligi.*

Abstract: *This article is dedicated to the brief codicological characteristics and grammatical, linguistic-semantic analysis of "Darveshlar Ahli Risolasi" (The Treatise of the People of Dervishes), one of the works created in the Old Uzbek language. The article identifies the manuscript's writing style, page structure, and calligraphic features. It also examines the morphological forms, syntactic structures, and Arabic-Persian lexical layers utilized in the treatise. Through semantic analysis, the essence of the Sufi views expressed in the work is revealed. As a result of the research, the work’s value*

is highlighted not only from a linguistic perspective but also from a philosophical and ethical standpoint.

Keywords: *old script, Sufism, Sufi practices, Old Turkic language, manuscript, history of language, Nasta'liq, chronological dating, murid (disciple), lexical layer, phonetics, synharmonism, labial harmony, sound harmony.*

KIRISH

Eski o‘zbek tili shakllanish davri XIII asr oxiri XIV asr boshlariga to‘g‘ri kelsa ham ildizlari ko‘p yillik tarixga ega. Ma’lumki turkiy til juda ko‘p yozuv turlaridan foydalangan. Jumladan: o‘rxun-enasoy, moniy, sug‘d, brahma, suryoniy, uyg’ur yozuvlari X-XI arlarda arab yozuvi bilan birgalikda foydalanilgan. Keyinchalik arab yozuvi XIV-XV asrga kelib uyg‘ur yozuvini ham siqib chiqardi va o‘z holatini biroz o‘zgartirgan holada XX arning ikkinchi yarmiga qadar faol istemolda bo‘ldi.

Tarixdan ma’lumki, tilning qurilish elementlar davrlar davomida ijtimoiy-siyosiy muammolar sabab bir xilda rivojlanib kelmagan. Dastlabki arab yozuvida yozilgan manbalar sifatida Mahmud Koshg’ariyning “Devoni lug’atit turk” (arabcha: التركلغات ديوان; tarjimasi „Turkiy so‘zlar devoni“) 1073-1074 yillarda yaratgan asarini keltirish mumkin. Bu asarda XI asrning 2-yarmida Markaziy Osiyoda va G‘arbiy Xitoy hududida istiqomat qilgan turkiy urug‘ va qabilalar, ularning ijtimoiy ahvoli, tili, tarixi, bu hududning geografiyasi, metrologiyasi va astronomiyasiga oid qimmatli ma’lumotlar yozib qoldirilgan. „Devonu lug‘otit turk“ning qo‘lyozmasi 1914-yil Turkiyaning Diyorbakr shahridan topilgan. 319 sahifali bu qo‘lyozma hozirgi Istanbulda saqlanadi„Devonu lug‘otit turk“ arab tilida yozilgan, 8 mingdan ortiq turkiy so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish maqsadida arabcha harakatlar (harflardagi ost-ust ishoralar)dan foydalanilgan. Bunda, albatta, muallif ancha qiyinchilikka uchragan, chunki arabcha harf va alif, vov, yo ishoralari bilan

turkiy tovushlarni berib bo‘lmas edi. Turkiy tildagi cho‘ziq va qisqa unlilar, yumshoq va qattiq tovushlar uchun Mahmud Koshg‘ariy maxsus belgilar (harakatlar)ni qo‘llaydi yoki so‘z boshidagi cho‘ziqlikni ikki alif bilan ko‘rsatadi yoki 2 xil talaffuz qilinadigan so‘zlarga 2 xil ishora qo‘yadi: azuqluq, eritmak so‘zlaridagi 3 va R harflari ustiga ham kasra, ham damma ishorasini qo‘ygan, demak, bu so‘zlar o‘sha davrda ikki xil talaffuz etilgan: azmqluq — azuqluq, eritmak — erutmak kabi. Arabcha harf bilan ko‘rsatish mumkin bo‘lmagan turkiy talaffuzni „Devonu lug‘otit turk“da izohlab, ta’riflab o‘tgan. „Devonu lug‘otit turk“da, avvalo, otlar, so‘ng fe’llar izohlanadi.. Keying davrlarda turkiy tillar bo‘yicha lug‘atlar va ularning tarkibida fonetik, leksik, grammatik tahlillar bilan birgalikda beriladigan bo‘ldi. Shunday asarlarning mualliflaridab biri Mahmud Zamaxshariy, 1075-yilda Xorazmning Zamaxshar qishlog‘ida 1075-yilda tug‘ilgan. U “Muqaddimat-ul-adab” nomli lug‘at muallifi sanaladi. XlII-XIVasrlar mobaynida turkcha-arabcha, turkcha-forscha taIjima lug'atIari ko'plab tuziladi: "Kitabi majmu-u-tatjimon turkiy va ajamiy va mo'g'oliy" (1245-yil); "Kitob-ul-idrak li-lison-alatrok" (muallifi - Asiriddin Abu Hayyon, 1256-1345-yillar); "Xiliat-ul inson va xalibat-ul lison" (muallifi - lamoliddin ibn Muxanna, Ozarbayjonda XIII asr oxiri - XIV asr boshlarida yozilgan); "Kitabu bulg'at-al mushtaq fil lug'ati at turk va-lqifchoq" (Jamoliddin at-Turkiy, XIV asr o'rtalarida Suriyada yozilgan); "Kitobu-at tuhfatu-uz zakiyatu fil lug'ati at turkiya" (XVasrda Misrda yozilgan).

XII asrda Xorazm davlatining mavqeyi oshib boradi va buy yer fan va madaniyat gullab yashnagan davlatga aylanadi. Bu davrda Oltin O‘rda xonligida XIII-XIV asrlar mobaynida adabiy markaz vujudga keldi. Bu yerda yozilgan asarlar ko‘proq qipchoq-o‘g‘uz qabila tillari xususiyatini ifodalaydi. Xorazmiyning “Muhabbatnoma”si, Qutbning “ Xusrav va Shirin” asari va yana diniy mavzudagi “Rohat ul-qulub”, “Najh ul-farodis”, Alining “Qissasi Yusuf” asarlari aynan arab yozuvi asosida shakllanayotgan eski o‘zbek tilining yorqin namunalaridan biridir. Bizga ma’lumki eski o‘zbek XIII asr oxiri XIV

asr boshlarida shakllanib yetgan. Alisher Navoiy bo‘lsa tilning shakllanishida emas balki uning ifoda xususiyatlarini ochib berishda katta ahamiyat kasb etdi. Navoiy allaqachon rivojlangan va uzoq davrni bosib o‘tgan tilda ijod qilib bu tilning imkoniyatlarini ochib berdi, tilni adabiy normaga solib boyitdi, turkiy tilning boshqa tillar oldidagi obro‘yini tikladi, keyingi davr shoirlarni ham turkiy tilda asarlar yozishga bilvosita va bevosita da’vat etdi. Shoirning “Muhokamat ul-lug‘atayn”, “Chor devon”, va “Xamsa” poetik asarlari, “Vaqfiya”, “Xamsat ul-mutahayyirin”, “Majolis un-nafois” va yana boshqa ijod namunalari eski o‘zbek til adabiy me’yorlarinig paydo bo‘lishiga va boyishiga turtki bo‘ldi. Alisher Navoiydan so'ng uning asarlarini izohlashga bag'ishlangan turli lug'atlaryoziladi. Toli' Imoniy Xiraviyning "Badoe-al-lug'at"i (XV asr oxiri), "Abushqa"(XVI asr l-yarmida yozilgan "Chig'atoycha-turkcha lug'at"), "Lug'ati turkiy" (FazluIIaxon tomonidan XVII asming ikkinchi yarmida tuzilgan, eski o'zbek tilining lug'ati va grammatikasiga oid), "Kelumoma" (XVII asroxirida Muhammad Yaqub Chingiy tomonidan tuzilgan), "Sangloh" (Mirza Mehdixon tomonidan 1760-yili yozib tugatilgan chig'atoycha-forscha lug'at; bu lug'atning muqaddimasida eski o'zbek tilining grammatikasi tahlil qilinib, u "Maboni-ul-Iug'at" deb nomlanadi). Bulardan tashqari, eski o'zbek tiIi lug'ati va grammatikasiga oid Muhammad Rizo Xoksor (1798- 1799), Fath Alixon Kojariy (1857-1858), shayx Sulaymon Buxoriy va boshqalaming asarlari bor. Eski o'zbek adabiy tili davriga oid AM. Sherbakning ishlari ham ma'lum. [1]

Muhokama va natijalar

Eski o‘zbek tilida yaratilgan manbalar juda ko‘p miqdorda bo‘lsada, ulardan juda kam sonli mashxur adiblarning asarlarigina shu kungacha kodikologik va grammatik jihatdan tekshirish va lotin yozuviga transliteratsiya qilinib kitobxon ahliga havola etildi. “Darveshlar ahli risolasi” kiritilajak

[1] Abdurahmonov G‘., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi.-T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. - 528 b. 23-bet.

kitoblardan biri bo‘lib so‘fiylik va yassaviylik aqidalarini o‘zida mujassam qilgan. Muridlarga eslatma sifatida yozilgan bu kitob eski o‘zbek tilida XIX ars oxirlarida kotib tomonidan ko‘chirilgan. “Darveshlar ahli risolasi” (keyingi o‘rinlarda: Risola) O‘rta Osiyo tasavvufiy-adabiy an’analarida keng tarqalgan odobnoma/maslaknoma turining ixcham, va mukammal namunasi hisoblanadi. Risola bugun mavjudhisoblangan raqamli kolleksiyalar orqali ilmiy jamlangan bo‘lib, “Indiana university” [2]raqamli platformasida, Helmer Jarring to‘plami bilan bog‘liq proveniensda saqlanadi. Bu to‘plamda bundan tashqari 400 dan ortiq chig‘atoy tiliga oid asarlar raqamlashtirilgan. Risola tipologik jihatdan “ādāb al-murïdïn”, “risāla-yi sulūk”, “futuvvatnoma” kabi matnlar bilan qiyoslanadi va Naqshbandiya hamda Qodiriya maktablarida shakllangan axloqiy-ruhiy me’yorlar tarzida jamlagan.

Qog‘ozi holati yaxshi sifatli, silliq, o‘rta zichlikda; flyleaf (bo‘sh himoya varaqi) mavjud. Bu holat kech davrda – XIX asr oxiri – XX asr boshlarida qayta bog‘langan yoki tartibli tarzda tikilgan nusxalarga xos. Formati o‘rta hajmda hisoblanib bir ustunli matn. Ramkali sahifa chiziqlari ko‘rinmaydi, satrlar yengil yo‘riqnoma (ruling) bilan tekislab yozilgan ko‘rinadi.

Siyoh va bezaklarga to‘xtaladigan bo‘lsak qora asosiy siyoh va rubrikatsiya minimal, sarlavha va basmala ajratilishi uchraydi, qizil siyoh deyarli ishlatilmagan.

Xat turi nastaliqda bo‘lib barqaror, o‘qilishi oson, diakritika tejamkor holda ishlatilgan. Harfiy modul va satr intervallari muvozanatlidi.

Tikuv belgilari ko‘rinmasa-da, varaqlanish ehtimoli yuqori.

Holati yaxshi saqlangan, yirtilish va hasharot izlari deyarli yo‘q. Bu esa raqamlashtirishdan oldin ishlov berilganini ko‘rsatadi.

Ushbu belgilar risolaning qo‘llanma matn sifatida ko‘p o‘qilgan, ammo zeb va bezaksiz, talaba yoki murid ehtiyojiga mos, ixcham qo‘llanma sifatida yaratilganini anglatadi. Nastaliqning kech davr variantiva yana qog‘ozning

[2] https://www.ub.lu.se/en/find/digital-collections/jarring-collection

sanoatlashgan, ammo hali ham mustahkam strukturasiga ko‘ra nusxa Jarring kolleksiyasi ma’lumotlariga ko‘ra XIX asr oxiri – XX asr boshlariga taalluqli deb aytiladi . Atama va iboralarning normativ, arabiy-forsiy iqtiboslarning i‘robsizammo to‘g‘ri yozilgan. Bu esa madrasa muhitida savodli ko‘chirilganidan dalolat beradi. Risola nasihatnoma/odobnoma turiga kiradi. Uning maqsadi:

- muridning shaxsiy riyozati, zikr va suhbat odoblarini ifodalash;
- shariat–tariqat–haqiqat–ma’rifat bosqichlarini qisqa, amaliy ta’riflar bilan berish;
- ustoz-murid ijtimoiy-axloqiy munosabatini tartibga solish;
- qanoat, tavakkul, halol mehnat, tilni hifz etish kabi fazilatlarni normativ me’yor sifatida mustahkamlash.

Shu bois Risola zohidlikni haddan ziyod maqbul emas, balki ijtimoiy mas’uliyat bilan uyg‘un holda talqin etadi – bu O‘rta Osiyo Naqshbandiy diskursining “xalvat dar anjuman”, “dil ba yoru dast ba kor” tamoyillariga mos keladi. Va yana Yassaviylik tariqatining asosiy qonunlari ham matn mazmunida ifodalangan.

XX asrgacha turkiy tillarga oid ko‘plab asarlar aynan XI asrda yaratilgan alifbo asosida yozilgan. Alifbo almashtirilgandan so‘ng, ushbu matnlarni o‘qishda muayyan muammolar yuzaga keldi. Ushbu muammolardan biri sifatida alifbo masalasi tilga olinadi. Arab alifbosi turkiy tillarning fonetik (tovush) tizimini yetarli darajada aks ettira olmaydi.

Masalan, turkiy tillardagi sakkizta unli tovushni ifodalash uchun uchta belgi qo‘llanadi: /a/ tovushi uchun alohida belgi, /e/ tovushi uchun esa alif yoki yuqori alif (آ . ا) ishlatiladi. /o/, /ö/, /u/, /ü/ unlilari so‘z boshida alif vav (او) orqali, so‘z o‘rtasi va oxirida esa faqat vav (و) orqali ifodalanadi. /ı/ va /i/ unlilari uchun so‘z boshida alif ye (یا), so‘z o‘rtasi va oxirida esa faqat ye (ي) belgisi qo‘llanadi.

Shu bilan birga, turkiy tillarda yopiq e (ė) tovushi ham mavjud bo‘lib, u alohida belgi orqali ifodalanadi va bu holat dastlab Yenisey bitiklaridan boshlab kuzatiladi. Ayrim tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, yopiq e (ė) tilning to‘qqizinchi unlisi sifatida qaraladi. Hozirgi kunda ushbu tovush qozoq tilida (ə), ozarbayjon tilida esa (ä) shaklida ifodalanadi.

Turkiy til tarixining ayrim davrlarida maxsus belgi sifatida qo‘llangan ushbu grafema Xorazm davri yodgorliklaridan biri bo‘lgan “Nehcü’l-Feradis” asarida ham uchraydi. “Nehcü’l-Feradis” turli jihatlari bilan muhim ahamiyatga ega bo‘lgan asar hisoblanadi.[3] Transktipsiya alifbolari o‘zbek adiblari G‘. Abdurahmonov, A. Rustamov, F. Abdullayev, E. Umarov, S. Ashirboyev va boshqa adiblar tomonidan yaratilgan bo‘lsada, bugungi kun lotin talablariga mos ravishda Rashid Rahmat Aratning transkriptiv alifbosidan foydalanishga qaror qildim. Yaxshi alifbo matn bilan mos bo‘lishi kerak va unchalik katta joy olmasligi barcha lotin yozuvi va belgilari talabiga mos bo‘lishi kerak. Aynan shu talablar Rashid Arat [4] yaratgan alifboda mujassamlashgan.


Imlo (orfografik) xususiyatlarga nazar tashlaganimizda, ushbu tovushning fatha + ye harfi + jazm hamda fatha + ye harfi + fatha shakllarida

ėki أيكِي , ėliŋe أيَ لِينكَا , ėndim يَنديمْ أ, ėwüŋde أيڤونكدَا , ėwlerdin أيڤلَارْدِينْ , ėy أىَ , tėdi
yėyürler يَيِيوْرلَارْ , yėtip يَتيبْ , yėti يَتِي , yėtmiş miŋ يَتْمِيشْ مِينكْ .

yozilgan namunalari uchrashi kuzatiladi. Masalan quyidagi manba[5]

“Darveshlar ahli risolasi” asarining dastlabki bandlaridayoq tasavvuf va darveshlik ta’limotlarini ko‘rishimiz mumkin:

[3] Sultonbek, K.; Shadkam, Z.; Kairanbayeva, N. Markaziy Osiyoda tarixiy turkiy matnlar tadqiqotida transkripsiya masalasi // Türk Kültürü ve Hacı Bektaş Veli Araştırma Dergisi. — 2023. — №108. — B. 99–117.
[4] Arat,Resid Rahmeti.Turk Ilmi Transkripsiyon Kılavuzu. Makaleler.1/33-69.Ankara: Turk Kulturunu Arastırma Enstitusu Yayınları, 1987.
[5] Yücel, Bilâl. “Nehcü’l-Ferādis’te Uzun-Kapalı E (ė¯) Ünlüsünün Yazımı”, 38. ICANAS (10-15.09.2007, Ankara) -Bildiriler- Dil Bilimi, Dil Bilgisi ve Dil Eğitimi. IV/2009- 2018. Ankara: AKDTYK Yay., 2011.


الحمد لله رب العالمين والعاقبة للمتقين والصلوٰت والسلام
على رسوله محمد واله واصحابه اجمعين بلكيل كه بو رساله قطب
الاقطاب وسرور مشايخ سلطان الاولياء وبرهان الاتقياء
فرزندخوان حضرت سلطان الانبياء صلى الله عليه وسلم

(1.a)

Rïsolai darviş.

1 .Ïlahi rabbin a:lamïyn val a:qibat ul m:uttaqiyn va satu vassalamu

2. A:la raşulïhi muham:ad va:alayhï va a'jma'ïyn. Bilgi:lki bu rïsola qutb

3. ul a:qobiliyatini va şurüru maşoyiḫ sultan ul avliyo va Burton ul at qiyo

4. farzandi xān ḫażrati sültān ul nabïyï salālāhu(v) a'layhı vasallam.

Avvalo, grammatik jihatdan matn asosan ismiy gaplar tizimiga qurilgan bo‘lib, arab tiliga xos predikativ strukturalar bevosita o‘zlashtirilgan. .Ïlahi rabbin a:lamïyn val a:qibat ul m:uttaqiyn, “va satu vassalamu” kabi birliklarda fe’l markazda joylashmayapti balki nominal kesimlik ustunlik qiladi. Bu hol diniy matnlarda tantanavorlik va qat’iylikni kuchaytirishga xirmat qiladi. Keyingi qismda “Bilg‘ilki” shakli orqali turkiy qatlam faollashganini ko‘rishimiz mumkin. Bu yerda hozirgi o‘zbek tilida ham faol ishlatiladigan buyruq mayli shakli (-gil affiksi) ishlatilgan bo‘lib, u o‘quvchiga bevosita murojaatni bildiradi va parchaga didaktik qolip beradi.

Morfologik jihatdan matn turkiy tizim bilan flektiv arabcha birliklarning sintezilashuvida namoyon bo‘ladi. Masalan, “qobiliyatini” shaklida arabcha o‘zakka turkiy egalik (-i) va kelishik (-ni) qo‘shimchalari birgalikda kelgan. Shu bilan birga, “şurüru maşoyiḫ” , “sultan ul avliyo” kabi birikmalarda doimiy izofalar saqlangan bo‘lib, ular semantik jihatdan aniqlovchi-aniqlanmish

munosabatini ifodalaydi. Bu ikki tizimning bir matnda parallel qo‘llanishi eski o‘zbek adabiy tilining gibrid xarakterini ochib beradi.

Sintaktik darajada matnning asosiy xususiyati — zanjirsimon aniqlovchilar tizimini tashkil etadi.

Leksik-semantik jihatdan matn uch asosiy qatlamdan tashkil topgan: birinchisi, arabcha diniy leksikalar ya’ni *rab, muttaqïn, rasūl, ṣalāt*, ikkinchisi, tasavvufiy terminlar *quṭb, avliyā, mashāyih*, uchinchisi ijtimoiy-unvoniy birliklar sanaladi ya’ni *sulṭān, xān, ḥaẓrat*. Bu qatlamlar o‘zaro semantik uyg‘unlik hosil qiladi: matnda: Alloh → Payg‘ambar → avliyolar → shayxlar. Natijada matn ideologik va ruhiy-ma’naviy mazmun tashuvchiga aylanadi.

Semantik struktura nuqtai nazaridan parcha muqaddima (kirish) funksiyasini bajaradi. Unda Allohning ulug‘lanishi, Payg‘ambar Muhammadga salovot aytilishi va risolaning tasavvufiy maqomi asoslanadi. “Bilg‘ilki” orqali esa muallif o‘quvchini faol qabul qiluvchi subyekt sifatida jalb etadi, ya’ni matnning keyingi qismi uchun konseptual tayyorgarlik yaratiladi. Shu bois bu birlik faqat grammatik vosita emas, balki diskursiv marker sifatida ham ahamiyatlidir.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR.

1. Abdurahmonov G‘., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi.-T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. - 528 b. 23-bet.
2. Sultonbek, K.; Shadkam, Z.; Kairanbayeva, N. Markaziy Osiyoda tarixiy turkiy matnlar tadqiqotida transkripsiya masalasi // Türk Kültürü ve Hacı Bektaş Veli Araştırma Dergisi. — 2023. — №108. — B. 99–117.
3. Arat,Resid Rahmeti.Turk Ilmi Transkripsiyon Kılavuzu. Makaleler.1/33-69.Ankara: Turk Kulturunu Arastırma Enstitusu Yayınları, 1987.

4. Yücel, Bilâl. "Nehcü'l-Ferādis'te Uzun-Kapalı E (ė¯) Ünlüsünün Yazımı", 38. ICANAS (10-15.09.2007, Ankara) -Bildiriler- Dil Bilimi, Dil Bilgisi ve Dil Eğitimi. IV/2009- 2018. Ankara: AKDTYK Yay., 2011.

5. https://www.ub.lu.se/en/find/digital-collections/jarring-collection